После слияния УзГИИТИ и ТашГИИТИ в 2006 году, при Центральном производстве был создан Отдел прикладной геодезии, в котором были собраны специалисты отделов основных геодезических работ из двух институтов. Численность отдела в период 2008-2012г.г. составляла примерно 12-15 человек, в структуре было две партии: геодезическая (нач. партии С. Матвеев) и топографическая (нач. партии Ф. Кадыров).

В связи с увеличением объема геодезических работ, в 2015 г. численность отдела возросла до 30, а в 2023 году составляет 37 человек. Руководит отделом С. С. Матвеев. Отдел оснащен широким перечнем современных инструментов, приборов и технических средств. Широко использует информационно-коммуникационные технологии, самые современные сертифицированные программные продукты, как при выполнении работ, так и при обработке результатов измерений.

Вот список лишь некоторых крупных и особо важных объектов, выполненных отделом за период с 2008 по 2023 год:

- газопровод Узбекистан-Китай (WKC 1.WKC3, MS);
- строительство на Ангренской ТЭС энергоблока мощностью 130-150 МВт с теплофикационным отбором;
- завод GTL в Кашкадарьинской области;
- ГХК Устюрт ПРОЕКТ;
- автомобильные дороги Кашкадарьинской области Дехканабадского района;
- реконструкция магистральных водопроводов в г. Фергана, Маргилан, Андижан;
- газопровод Узбекистан-Китай (насосная станция во внешнем водозаборе, ППУГ, газопровод внешнего снабжения к UGSP);
- газопровод Узбекистан-Китай КНР (трасса оптимизации компрессорных станций) (Узбекистан, Китай);
- строительство завода по производству жидкого синтетического топлива;



- обустройство газоконденсатных месторождений Адамташ, Гумбулак и Джаркудук-Янги Кизилча в Республике Узбекистан;
- инженерные-изыскания для предпроектных работ по площадке ГПЗ Кандымской группы месторождений;
- строительство атомной электростанции в Фаришском районе Джизакской области (стадии: предпроектные изыскания комплексные режимные наблюдения (мониторинг) за компонентами природной среды);
- строительство ПГУ Навои.

Наряду с производственной деятельностью отдел занимается научно-исследовательскими работами и разработкой нормативных актов по внедрению в производство современных технологий: беспилотных летательных систем (БЛС) для производства топографических съемок и создания ортофотопланов планов в формате 3D, ГИС-контроллеров, современных спутниковых систем и т.д.



Отдел топографо-геодезических работ (ОТГР)

Отдел топографо-геодезических работ является структурным подразделением института "O'zGASHKLITI", выполняющим топографо-геодезические работы.

Основными задачами является внедрение в производство новой техники и технологий в топографо-геодезическом производстве, выпуск материалов наземной топографической съемки масштабах 1:500 - 1:10 000, а также материалов съемки инженерных подземных коммуникаций и сооружений.

На сегодняшний день основным видом работ является съёмка и корректура (дешифровка) топографической основы для разработки градостроительной документации генеральных планов и проектов детальных планировок (ПДП) городов и городских посёлков по Республике Узбекистан, выполняемых согласно Постановлениям Президента, а также по

заявкам хокимиятов районов и областей. Также выполняет топографо-геодезические работы в соответствии с техническим заданием и технического предписания производственного отдела, согласно заключенного договора с заказчиком.

Топографические и инженерно-геодезические работы и съёмка подземных коммуникаций и сооружений, выполняется при строгом соблюдении требований инструкций, наставлений, руководств и технических указаний, а также технологии и в сроки, установленные план-графиком.

В состав отдела входят: топографическая партия, геодезическая партия, группа камеральных работ.

В последние годы, кроме изыскательских работ для Генеральных планов и проектов детальных планировок (ПДП), отделом выполнены топографические работы по инвентаризации земель автомобильных дорог, освещения улиц на-



селенных пунктов, прирезанных к Ташкентской области и городу Ташкенту, для водоснабжения и электроснабжения, а также съемки на участках земель, выставленных на аукцион, согласно Постановления Президента Республики Узбекистан ПП № 71 ("Ер аукцион").

При производстве топографо - геодезических работ используют современную технологию и технику, такую, как

GPS GNSS Trimble R8, электронные тахеометры Fokus 6, полевой контролер РТК с процессором Core TM i7, приборы ИПК Сталкер 75-04 а также материалы залета БПЛА - ортофотопланы необходимых масштабов.

Отделом руководили Э. А. Цыганков, Л. Я. Никитюк, Б. В. Усманов, Р. Мирзаахмедов, А. Умаров. В данное время отделом руководит Шайхджалолиддин Бурибеков.



Отдел дистанционного зондирования земли

Отдел дистанционного зондирования Земли (ОДЗЗ) занимается современными методами зондирования с целью получения информации о земной поверхности в кратчайшие сроки, при этом пространственное разрешение на таких снимках достигает 1 см на пиксель. В совокупности с программными продуктами обработки данных обеспечивается быстрое создание трехмерных цифровых моделей местности с высоким уровнем детализации. В качестве инструмента обработки материалов съемки применяются лицензионные ПП Agisoft PhotoScan, Bentley Context Capture Center, Кредо.скан и MagneTools.

По результатам аэрофотосъемки с БПЛА формируются следующие продукты:

ортофотопланы масштабов 1:500 и

мельче, соответствующие точности ведения государственного градостроительного кадастра, объектов недвижимости, инженерно-геодезических изысканий для строительства и маркшейдерского обеспечения горных работ. При обеспечении пространственного разрешения изображения 1 см на пиксель;

ЦММ - цифровая модель местности (точки модели располагаются на поверхности объектов местности и земли);

ЦМР - цифровая модель рельефа (точки модели располагаются только на поверхности земли);

3D-модель местности;

текстурированная геопривязанная модель местности в различных форматах;

лазерное (лидарное) сканирование формирует плотное облако точек, а несколько отражений позволяют получить цифровые модели рельефа даже



в условиях густой залесенности. На основе высокоточных данных, полученных с лазерного сканирования и аэрофотосъемочной камеры, получаем максимально подробные трехмерные модели;

тепловизионная съемка - поиск и обнаружение объектов и учет определение тепловых утечек на объектах инфраструктуры, определение абсолютной температуры объектов, составление тепловых карт и тепловых моделей местности.

Руководит отделом М. Мирхайдаров.

В настоящее время отдел занимается развитием технических средств и геоинформационных технологий с применением беспилотных летательных аппаратов (БПЛА) в градостроительную сферу деятельности для решения многочисленных задач, таких как получение высокоточных аэроснимков о состоянии площадных и линейных объектов

местности с высокой точностью геопозиционирования на основе, которой изготавливается цифровые 2D и 3D местности. Среди многочисленных задач, решаемых с помощью БПЛА эта сфера имеет решающее значение для различных направлений: от городского планирования и развития инфраструктуры до мониторинга окружающей природной среды, которая позволяет получать качественную информацию о происходящих геоэкологических процессах и явлениях и борьбы со стихийными бедствиями.

Объединяя классические геодезические и топографические методы с технологиями дистанционного зондирования, отдел вносит значительный вклад в получение точных сведений о рельефе местности и составлении карт и для получения оперативных и аналитических данных о состоянии земной поверхности.

"O'ZGASHKLITI" 60 yilligiga
Tobrik

"TASHGIPROGOR" AJ

Yurtimiz bunyodkorlik sohasida
munosib o'rin egallab kelayotgan
"O'zGASHKLITI" jamoasini

60 yillik tantanasi bilan muborakbod etamiz!

Sizlarning salohiyatingiz tufayli bugun yurtimizning har
bir hududida bir-biridan shinam, ko'rkam va mustahkam
imoratlar qad rostlamoqda.

Bu mashaqqatli va sharaflı vazifani sidqidildan uddalab kelayotgan
jamoա bilan har qancha faxrlansak, oz.

Yurtimizning qurilish va arxitektura sohasiga munosib hissa
qo'shishdek mas'uliyatli vazifani bajarib kelayotgan jamoaning
injener-geolog, geodizist, topograf, laborant, burg'ulash ustasi,
texnik xodimlariga sog'lik, tinchlik va omad tilaymiz!

"O'zGASHKLITI" 60 yilligiga
Tobrik

Ularning xotirasi abadiy

Biz ko'pincha qalbimizda chuqur iz qoldirgan insonlarni xotirlaymiz, ular haqidagi ezgu taassurotlar, sodir bo'lgan ibratli voqealarni maroq bilan esga olamiz. Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha-ilmiy tekshirish instituti MCHJ – "O'zGASHKLITI"ning 60 yilligi munosabati bilan institut rivojiga o'zining xizmati, ilmi va idroki bilan katta hissa qo'shgan bir qator ustozlarni xotirlab, e'tirof etib o'tishni lozim topdik.

"O'zGASHKLITI" tarixida chuqur iz qoldirgan insonlardan biri – Viktor Savadir. U 1938-yilda tavallud topgan. 1968-yil Toshkent politexnika institutini tamomlab, gidrogeologiya va geologiya muhandisligi yo'nalishida ish boshlagan. Faoliyati davomida katta texnik geolog, kichik texnik, gidrogeologiya muhandisi sifatida qator loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etgan. 1973-yildan boshlab esa "O'zGASHKLITI"da 2005-yilgacha faoliyat olib borgan. Soha rivoji uchun qo'shgan xizmatlari tufayli 1988 yilda "Mehnat faxriysi" medali bilan taqdirlangan. Institutdagi uzoq yillik faoliyati sababli ko'pchilik kasbdoshlarining chuqur hurmatiga sazovor bo'lgan. Ayniqsa, o'ta aniqlik bilan ishlashi, kasbiga nisbatan muhabbati borasida barchaga ibrat ko'rsatgan.

Ana shunday ustozlardan yana biri – Abduxalik Saparovdir. U 1944-yil Sirdaryo tumanida tavallud topgan. 1967-yil Toshkent politexnika institutining tog' injenerligi geolog mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. Mehnat faoliyatini 1961-yilda dastlab stajyor tadqiqotchi sifatida boshlagan. Keyinchalik gidrogeolog, muhandis gidrogeolog sifatida ishlab, ilmiy salohiyat masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratgan. Keyinroq Toshkent politexnika universiteti aspiranti ham bo'lgan. 2001-yil esa "UzGITI"da bosh muhandis bo'lib ish boshlagan. Bu orada Suriyada ham katta muhandis sifatida o'z sohasi bo'yicha bir qator loyihalarda ishtirok etgan. 2006-yilda "O'zGASHKLITI"da bosh eksperti sifatida faoliyat yuritib, yurtimiz bunyodkorlik taraqqiyotiga samarali ish uslubi va harakatchanligi bilan ulkan hissa qo'shgan.



Viktor Sava



Abduxalik Saparov

Jamoadoshlari xotirasida o'zining insoniy fazilatlarini bilan ajralib turgan yana bir inson – Jaksilyik Pirnazarovdir. U 1953-yil Taxtakopir tumanida tavallud topgan. 1977-yil Toshkent davlat universitetini tugatib, muhandis-geolog sifatida ish boshlagan. Jaksilyik Pirnazarov "UzGITI"da 1980-yildan faoliyat yuritib boshlagan. Dastlab institutning Nukus filialida muhandis geolog, geologiya bo'lim mudiri, geologiya bo'yicha bosh mutaxassis, ishlab chiqarish bo'limi mudiri, filial direktori vazifasini bajaruvchi kabi qator mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat yuritgan.

Jaksilik aka talabchan mutaxassis, rahbar, atrofdagilarga chuqur hurmat ko'rsatadigan, kasbiga, o'z ish joyiga nisbatan sadoqati bilan ajralib turgan. Jamoadoshlari ham Nukus filialidagi topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishi, ishning sifat darajasi yuqori bo'lishida bu insonning o'rnini kattaligini alohida ta'kidlashadi.

Sohaning yana bir malakali xodimi – Rafael Kaipov 1962-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1955-yil Toshkent arxitektura-qurilish institutini tamomlagan. 1983-yil Toshkent topografiya texnikumini, 1987-yil Moskva geodeziya, aerofotos'yomka va kartografiya institutini bitirgan. Faoliyati davomida O'zbek davlat texnik muhandislik qidiruv instituti katta texnik-topografi, O'zbek dav-

lat qishloq xo'jaligi suv ta'minlash loyihalash instituti qidiruv ishlari bo'limida 1-darajali topograf, guruh rahbari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar xizmati va Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasida oliy toifali geodezist, bosh muhandis, topografiya bosh eksperti sifatida faoliyat yuritgan.

2012-yildan esa "O'zGASHKLITI"ning texnik bo'limida topografiya bosh eksperti sifatida ishlagan. Rafael Kaipov o'z sohasining zukko bilimdoni, zamonaviy texnologiyalarning ilg'or amaliyotchisi sifatida esda qolarli ishlarni amalga oshirgan.

Umuman, yuqorida sanab o'tganimiz – marhum xodimlarni, Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha-ilmiy tekshirish instituti MCHJ – "O'zGASHKLITI"ning oila a'zolaridek bo'lib qolgan fidoyi insonlarning ismlarini, qilgan ishlarini eslash orqali ularning yorqin xotirasini yana bir bor yodga oldik. Bu bilan asl insonlar xotirasi qalbimizdan o'chmasligini ifoda qilgan bo'lsak, bas.

***"O'zGASHKLITI"ning
60 yillik tantanalari arafasida
olamdan o'tgan xodimlarni
yod etish asnosida, ularning
oilalari a'zolariga ham chuqur
minnatdorchilik izhor qiladi.***



Bizning faxriylar

Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy–tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI" jamoasida umrini, bor bilim va mahoratini ushbu tashkilotga baxshida qilgan fidoyi xodimlar ko'p. Ularning aksariyati umri davomida faqatgina ushbu institutda faoliyat yuritgani ham bir baxt, aslida.

Quyida ana shunday fidoyi va tajribali xodimlar bilan tanishasiz.

"Men uchun qadrli dargoh"

Inson bir umr bitta joyda ishlashi uchun yo o'sha tashkilotga juda ham kerakli kadr bo'lishi yoki o'z ishini chindan yaxshi ko'rishi lozim. Ammo bu ikki fazilatni ham o'zida mujassam etgan fidoyi insonlar ham ko'p o'ramizda.



"O'ZGASHKLITI" 60 yilligiga
Bizning faxrliylar

Bugungi kunda Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti ("O'ZGASHKLITI") direktorining ishlab chiqarish bo'yicha o'rinbosari lavzomida ishlab kelayotgan Baxtiyor Usmonov ham ana shunday kerakli kadrlardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

– Quruvchilikka, umuman, qurilish sohasiga bolaligidan qiziqqanman, – dedi Baxtiyor Usmonov. – Ulg'ayganim sayin maqsadim qat'iylashib, 1975-yilda Toshkent politexnika institutiga o'qishga kirdim. 1980-yil institutning Qishloq qurilish fakultetini amaliy geodeziya mutaxassisligi bo'yicha tamomlab, 1980 yilda taqsimotga ko'ra shu institutga ishga kelganman. Umrimning asosiy qismi aynan shu dargohda o'tganidan hech qachon afsuslanmaganman. "O'ZGASHKLITI" men uchun qadrli dargohga aylangan.

Ushbu dargohda 43 yildan buyon turli lavozimlarda ishlab kelayotgan Baxtiyor aka yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlariga katta hissa qo'shgan malakali mutaxassislardan biridir. Oddiy injener, bosh mutaxassis, bo'lim boshlig'i sifatida ko'plab loyihalarda ishtirok etgan Baxtiyor aka 2010-yildan buyon direktor o'rinbosari vazifasida faoliyat yuritib, asosan viloyatlardagi filiallar bilan ish olib bormoqda. Shu yillar davomida Parkent tumanidagi quyosh elektr stansiyasi, "G'uzor-Boysun-Qum-qo'rg'on" yo'li kabi ko'plab yirik obyektlarning

geodeziya-topos'yomka ishlarini amalga oshirish jarayonida qatnashgan. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi soda zavodi qurilishida ham qatnashib, noldan boshlab topos'yomka va geodeziya ishlarini amalga oshirgan.

– Ishga ilk kelgan paytimiz topografik-geodeziya ishlari bo'limidagi barcha xodimlar biz yoshlarga o'z kasbining sirlarini qunt bilan o'rgatishgan, – dedi qahramonimiz. – Gera Semenov, Vitalik Shuligin, Alisher Normatov, Bronislav Sim kabi ustozlarning xizmatlari hamon yodimda. Bugungi darajaga yetishimda ustozlarimning, shu tashkilotning hissasi katta. Bugungi kunda qurilish sanoati ham kundan-kun taraqqiy etib, sohada yangi qoida, talab va normalar yaratilmoqda. Biz ham zamon talabidan kelib chiqib, geodeziya va topografiya ishlari-dan tashqari, obyektlarning loyihalarini ham amalga oshiryapmiz.

O'z kasbini sevgan, uni hayotining mazmuniga aylantirgan insonlarning farzandlari ham aksariyat hollarda ota kasbining davomchisi bo'lishadi. Bugun 67 yoshni qarshilagan Baxtiyor Usmonovning to'ng'ich farzandi Doniyor Usmonov ham otasi bilan birga ushbu dargohda mehnat qilib kelmoqda. Yana bir o'g'li Rustam Usmonov esa Avtomobil yo'llari qo'mitasida injener-geodeziya ishlari bilan shug'ullanadi.

Demak, Baxtiyor Usmonovning ushbu dargohda o'tgan 43 yillik umri besamar ketmagan, desak arziydi.

Hamkasblarining hurmatini qozongan Galina



Institutda bir umr ishlab, o'zining tirishqoqligi, mehnatkash va fidoyiligi bilan hamkasblarining hurmatini qozongan malakali mutaxassislardan yana biri – Galina Grigoryevadir.

mutaxassis bo'lib yetishgach, yana sevimli dargohida ish boshlaydi. Aniqrog'i, 1967-yilda o'qishini sirtqiga ko'chirib, faol ish jarayoniga qaytadi.

O'sha yildan buyon Galina Yuryevna "UzGITI", "O'zGASHK", Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI"da katta texnik, muhandis-geolog, katta muhandis, bosh muhandis va bosh mutaxassis lavozimlarida ishlab, davlat ahamiyatidagi yuzlab obyektlarning barpo etilishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

U 1963-yilda "UzGITI"ga texnik xodim sifatida ishga kirgan. Kasbiga bo'lgan mehri, yangiliklarga qiziqishi uni mukammal ma'lumot olishga undaydi. Shu bois, 1964-1967-yillarda Toshkent davlat universitetining geologiya fakultetida tahsil oladi. Muhandis-geolog va gedrogeologiya yo'nalishi bo'yicha malakali

Mehnatkashlik uning shiori

Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha-ilmiy tekshirish institutining yana bir malakali xodimi – Valentina Dushinadir. U 2001 yildan buyon geofizika muhandislik bo'limida yetakchi-mutaxassis vazifasida ishlab kelmoqda.

Valentina 1941-yilda Moskva shahrida tug'ilgan. 1968-yilda Toshkent Davlat universitetining geologiya muhandisligi yo'nalishini tamomlagan. Mehnat faoliyati davomida O'rta Osiyo geologiya va mineral xomashyo ilmiy ishlab chiqarish institutida katta laborant, Uzgirovodxozda muhandis bo'lib ishlagan. 2002 yildan hozirga qadar "O'zGASHKLITI"da qator vazifalarda faoliyat yuritib, yurtimiz bunyodkorlik sohasiga katta hissa qo'shib kelmoqda.



Xususan, geologiya-gidrogeologiya, geofizika muhandislik ishlari bo'limlarida ishlab, mehnatkashlik uning shiori ekanligini hamkasblariga namoyish etib ulguragan Valentini jamoadoshlari ham qadrlashadi.



"Kasbim – hayotimning mazmuniga aylangan"

Robert Mingaliyev – umrining ko'p yilini Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI"da o'tkazgan yuzlab professional xodimlardan biri.

U 1947-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni tamomlab, Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kiradi. O'zini Vatan oldida burchli hisoblagan Robert Mingaliyev o'qishni tugatib, harbiy xizmatga yo'l oladi. Harbiy xizmatdan qaytgan Robertni taqdir ushbu institut tomon chorladi.

1970-yillarda 23 yoshli Robertning kasbiy faoliyatida yorqin davr boshlandi. O'zining ayni kuchga to'lgan davridan to professional darajagacha bo'lgan yo'lni goh texnik-topograf, goh injener topograf sifatida bosib o'tadi. Hatto partiya rahbari sifatida ham faoliyat yuritadi. 1990-yilga kelib, mustaqillik endi bong urgan pallada u o'z faoliyatini chet elda davom ettiradi. 7 yil davomida Suriyaning Damashq shahrida turli loyihalarda qatnashib, kasbiy kamolotini bir karra yuksaltiradi. Sahroning issiq hovurida toblangan qahramonimiz 1997-yil O'zbekistonga qaytadi.

"Coco Cola" zavodi qurilishi va yana ko'plab boshqa loyihalarda tajribali mutaxassis sifatida faoliyat olib boradi.

Inson mehr ko'rgan joyidan ko'ngil uzishi mushkul. Orada boshqa joylarda ishlab kelgan Robert Mingaliyev ham ilk ishlagan dargohi "O'zGASHKLITI"ga 2009-yil takror kelib, faoliyatini davom ettiradi. U hozirgacha shu tashkilotda faoliyat yuritib, o'zining qimmatli tajribasini yoshlarga bo'lishib kelmoqda. Ayni paytda u institutning Geodeziya ishlari bo'limida bosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritib kelyapti.

– Inson davlatiga, tug'ilgan yeriga o'lguncha xizmat qiladi, – dedi qahramonimiz. – Kasbim – hayotimning mazmuniga aylangan. Agar mehnat faoliyatim davomida shu zaminga ozgina foydam tekkan bo'lsa, mamnun bo'laman.

Darhaqiqat, Vatan va uning taraqqiyoti yo'lida barchamiz mas'ulmiz. Jumladan, shuncha yillik mehnatlari uchun Robert Mingaliyevga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Zero, chin mehnat qadr topmog'i kerak.



Yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda

Yuriy Ten 1953-yilda Toshkent viloyatining Toshkent tumanida tug'ilgan. 1982-yilda Moskva geodeziya, aerofotosyomka va kartografiya institutini tugatgan. Mutaxassisligi bo'yicha muhandis-geolog bo'lgan Yuriy Ten nafaqat yurtimiz, balki xorijiy davlatlar qurilish-bunyodkorlik sohaslariga munosib hissa qo'shgan tajribali xodimlardan hisoblanadi.

U 1970-1973-yillarda Toshkent topografiya texnikumida tahsil olib, sohadagi ilk bilimlarni oladi. So'ngra, 1973-1980-yillarda Rossiyaning "Soyuzmarktrest" ekspeditsiyasida texnik geodezist bo'lib ishlaydi. 1980-1982-yillarda Toshkenda SU-2 "Tashtranspesstroy"da master, 1982-1984-yillarda SMU-2 "Tashpromstroy"da geodezist, 1984-1987 yillarda "Uzgiprogaz" texnik bo'limda mutaxassis bo'lib faoliyat yuritgan. 1987-1991-yillarda "UzGITI"ning boshlang'ich texnik bo'limida bosh mutaxassis, keyinchalik 223-sonli ekspeditsiyasida (Sentralnogo aerogeodezicheskogo predpriyatiya) ekspeditsiya boshlig'i, bosh muhandis,

"Uzgeodezkadastr"da rahbarning birinchi o'rinbosari, "Goskomzemgeodezkadastr"da boshqarma boshlig'i o'rinbosari, "UzRosneftegazgeo"da geodezist bo'lib ishlagan.

Bu davrlarda u o'zining tirishqoqligi, mehnatkash va yangiliklarga xayrixohligi bilan hamkasblarining e'tiborini qozongan. Yuriy Ten 2017-yildan buyon hozirga qadar Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'ZGASHKLITI"da bosh mutaxassis vazifasida ishlab, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Jamoadoshlari ishonchini qozongan

Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI" taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shib kelayotgan tajribali mutaxassislardan biri – Abdumutal To'rayevdir.



"O'zGASHKLITI" 60 yilligiga
Bizning faxriylar

1948-yilda Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida tug'ilgan Abdumutal To'rayev 1973-yil Toshkent politexnika institutini tamomlagan. Tog' muhandis-geologiya yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis o'z faoliyati davomida ko'plab yirik obyektlar qurilishida faol qatnashgan.

Abdumutal To'rayev 1978-yildan "O'zGASHKLITI"ning Andijon viloyati filialida Geologiya ishlari bo'yicha partiya boshlig'i sifatida ish boshlagan. U 1973-1978-yillarda Samarqand va Qashqadaryo ekspedit-siyasida texnik-geolog, muhandis-geolog vazifalarini bajargan. 1978-2002-yillarda

"UzGITI" Farg'ona filiali muhandis-geolog, 2002-2012-yillarda "UzGITI" Andijon filiali direktori, 2012-2018-yillarda Sharqiy min-taqaviy geologiya ekspedit-siyasi boshlig'i, 2018-2020-yillarda institutning Namangan filiali geologiya bo'limi boshlig'i vazifalarida ishlab, o'zini mas'uliyatli xodim sifatida namoyon etgan.

Malakali mutaxassis 2020-yildan hozirga qadar Andijon filialida Geologiya bo'limi boshlig'i vazifasida ishlab kelmoqda. Uning o'g'li Murodbek To'rayev ham otasining izidan borgan.

O'ziga xos tajribasi bor

1966-yilda Andijon shahrida tug'ilgan Konstantin Bugayenko ham institutning faxriy xodimlaridan hisoblanadi.

U 1991-yildan buyon hayotining mazmuniga aylangan institutda faoliyat yuritib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shgan malakali mutaxassis sifatida o'ziga xos tajriba to'plagan.

Konstantin Yuriyevich 1990-yilda Farg'ona politexnika institutining tog' muhandisligi yo'nalishini tamomlagan. Mehnat faoliyatini 1990-1991-yillarda



Samarqand filialida geolog sifatida boshlagan. Bu yillar davomida u ko'plab muhim loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etib, yuzlab yosh kadrlarga sohaning sir-asrurlarini o'rgatgan.

2018-yildan hozirga qadar Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI"da geologiya partiyasi bo'lim boshlig'i sifatida ishlab kelayotgan Konstantin Bugayenkoni taniganlar sohada o'ziga xos tajribasi bor mutaxassis sifatida hurmat qilishadi.

O'z sohaning munosib egasi

1949-yili Samarqand viloyatining Samarqand shahrida tug'ilgan Hikmatullo Abdusalomov ham qurilish-bunyodkorlik, loyiha va geologiya sohalarini puxta egallash orqali nafaqat jamoadoshlari, balki yurtimiz miqyosida ham hurmat qozonib kelyapti.

1973-yildan Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha-ilmiy tekshirish instituti MCHJ – "O'zGASHKLITI"ning Samarqand viloyat filialida ish boshlagan Hikmatullo Abdusalomov bu sohada ishlash mobaynida yuqori salohiyatli kadr sifatida o'zini ko'rsata oldi. Bu davrda viloyat miqyosidagi ko'plab yirik obyektlarning loyiha qidiruv va geodeziya ishlarini amalga oshirishda faol ishtirok etgan.

Tajribali muhandis-geolog sifatida ko'p yillar davomida yurtimiz bunyodkorlik sohasiga katta hissa qo'shib kelayotgan H. Abdusalomov bugunga qadar ko'plab tashkilotlarda samarali mehnat qilgan. Xususan, 1968-1973-yillar Tojik davlat universiteti talabasi, 1973-1975-yillar "O'zGITI" Samarqand filiali geologiya bo'limi muhandisi, 1975-yilda bosh muhandis-geolog, 1975-1976-yillar "Uzgiproselstroy" Samarqand filiali bosh muhandis-geologi, keyinchalik tadqiqot guruhi rahbari, bosh geolog, geologiya bo'limi boshlig'i sifatida ishlagan.



Hikmatullo Abdusalomov 1992-2007-yillar "UzGITI" Samarqand filiali direktori, "O'zGASHK" DK Samarqand filiali direktori v.v.b, 2008-2012-yillarda Samarqand filiali direktori lavozimlarida faoliyat yuritgan.

U 2012-yildan hozirga qadar "O'zGASHKLITI" Samarqand viloyati filialida geologiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari vazifasida ishlab kelmoqda.

Yoshlarga o'rnak

Sohada katta tajribaga ega mutaxassislardan biri – Xayrulla Jumayevdir. U 1975-yildan buyon institutning Qashqadaryo filialida turli vazifalarda ishlab kelmoqda.



Xayrulla Suvonovich 1952-yil Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida tug'ilgan. 1975-yil Toshkent politexnika institutining gidrogeolog, injener geolog mutaxassisligini tamomlagan. Mehnat faoliyati davomida tashkilotning Samarqand filialida injener geolog, katta geolog, oliy toifali geolog, so'ngra, Qarshi partiyasida rahbar sifatida ish olib borgan. 2000-2002-yillarda Markaziy institutda ishlab chiqarish bo'limida ishlagan Xayrulla Jumayev 2002-2007-yillarda yana Qarshi kompleks partiyasi ekspeditsiyasiga rahbar etib tayinlanadi.

Keyinroq Qashqadaryo filiali direktori lavozimida ham ishlab, viloyat miqyosidagi ko'plab obyektlarning barpo etilishiga bosh-qosh bo'lgan. Hozirda ham Qashqadaryo filialida geologiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va bosh muhandis vazifalarini bajarib, yosh kadrlarga o'zining kasbiy tajribasini o'rgatib kelmoqda.

Ahil jamoaning faxriy a'zosi

Minglab mutaxassislarni bir maqsad yo'lida birlashtirgan institut jamoasida Valeriy Shkurdodo kabi tajribali xodimlar ko'p.

Valeriy Alekseyevich 1983-yildan buyon Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha-ilmiy tekshirish instituti MCHJ ("O'zGASHKLITI") Andijon filialida ishlab, yurtimiz qurilish sohasiga katta hissa qo'shib kelmoqda.

U 1962-yilda Andijon viloyatining Poytug' shahri-



da tug'ilgan. 1991-yil Toshkent topografiya texnikumini texnik-geodezist mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. Tajribali mutaxassisning mehnat faoliyati shu paytdan boshlangan. Faoliyati mobaynida Farg'ona filia-

li Andijon ekspeditsiyasida o'lchovchi-topograf, "UzGITI" Andijon filiali topografiya bo'limi boshlig'i, "UzGITI" Markaziy apparatida 2-toifali topograf, "O'zGASHKLITI" Andijon filiali yetakchi muhandis geodezisti, Andijon filiali topografiya partiyasi boshlig'i, filial direktori o'rinbosari sifatida ishlab, ko'plab ob'ektlarning barpo etilishiga hissa qo'shgan. Valeriy Alekseyevich 2023-yildan boshlab Andijon filiali bosh muhandisi vazifasida ishlab kelmoqda.

Bugungi kunda uni hamkasblari va shogirdlari ahil jamoaning faxriy a'zosi hamda sohaning malakali mutaxassisi sifatida qadrlashadi.

"O'zGASHKLITI" 60 yilligiga
Bizning faxriy/lor

Sevimli dargohdagi mazmunli faoliyat

Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha-ilmiy tekshirish instituti MCHJ – "O'zGASHKLITI"ning faxriy xodimlaridan yana biri – Flyura Shakiryanovadir.

U 1957-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Yoshligidan bu sohaga qiziqqan Flyura Arshadovna orzularini amalga oshirish maqsadida 1979-yil Toshkent qurilish texnikumini (kunduzgi) muhandislik geodeziyasi mutaxassisligi bo'yicha tamomlaydi.

O'qish davomida o'zi tanlagan kasbni yaxshi o'zlashtirgan yosh kadr ilk faoliyatini 1979–1980-yillarda Yangiyer tumanining arxitektura bo'limida geodezist sifatida boshlagan.

1980–2007-yillarda "Toshkenttadqiqot"ning Toshkent shahar filialida injener bo'lib ishlagan Flyura Shakiryanova 2007-yildan



hozirga qadar "O'zGASHKLITI"da bo'lim boshlig'i sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

U bugungi kunda ham o'zi uchun sevimli bo'lgan dargohda yosh kadrlarga qo'lidan kelganicha yordam berib kelyapti.



Faol va tashabbuskor

Institutning eng faol va fidoyi xodimi, deganda jamoadoshlarining ko'z o'ngida albatta, Gulida Xadjibayeva namoyon bo'lsa ajab emas. Gulida opa 1979-yildan buyon ushbu institutda ishlab, o'z kasbining ustasi bo'lishdan tashqari, tashabbuskorligi, jamoat ishlarida faolligi bilan ko'pchilikning hurmatini qozonib kelmoqda.

1958-yil Toshkent shahrida tug'ilgan Gulida Xadjibayeva 1990-yil Toshkent irrigatsiya muhandislari va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutini sirdan bitirgan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi yer o'lchash muhandisi hisoblanadi.

Gulida Xadjibayevaning mehnat faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, faoliyatining ilk bosqichida, 1976-1979-yillar Toshkent qurilish texnikumida tahsil olgan. Texnikumni bitirib, institutning Buxoro filialida texnik xodim bo'lib ishlagan. Sohada biroz vaqt tajriba orttirgach, 1980-2008-yillarda "ToshGITI"da texnik, katta texnik, muhandis, guruh rahbari, yetakchi muhandis, bosh mutaxassis, bo'lim boshlig'i kabi vazifalarda faoliyat yuritgan. Bu davrda yosh va izlanuvchan xodim yurtimizdagi ko'plab inshootlarning barpo etilishida faol qatnashgan.

Uning ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Davlat shaharsozlik kadastrining GIS va elektron geofondi, Urganch shahridagi yer osti suvlarining GIS monitoringi, O'zbekiston Respublikasining elektron geofondi kabi geografik axborot tizimlari yaratilgan. Shuningdek, Gulida Xadjibayevaning Said Usmonov, Rabiga Ahmedshina, Yevgeniy Sokolov kabi ko'plab shogirdlari bugungi kunda institutning turli maqsadlardagi geografik axborot tizimlarini (GIS) yaratish va yuritish bo'yicha yetakchi mutaxassislar hisoblanadi.

2008-yildan hozirgacha u Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI"da Geoinformatika va shaharsozlik kadastrini qurish bo'yicha tadqiqotlar bo'limida (GIS) bosh tahlilchi sifatida ishlab kelyapti.

44 yillik umr mazmuni

1958-yil Toshkent shahrida tug'ilgan Aleksandr Rodionov texnik-geodezist sifatida yurtimizdagi ko'plab yirik loyihalarning faol ishtirokchisi. 44 yillik ish tajribasiga ega malakali mutaxassis hozirda Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI"ning Texnik nazorat va ekspertiza bo'limida katta ekspert sifatida ishlab kelmoqda.



– Bu sohaga kirib kelishim hayotimda katta voqea bo'lgan, – dedi Aleksandr Yevgenyevich. – 9-sinfni tugatib, yozgi ta'til-da ishlab chiqarish korxonasida bir muddat amaliyotda bo'ldik. Keyin otam meni ushbu tashkilotga ishga joylab qo'ydi. Shu-shu, bu soha men uchun hayotimning mazmuniga aylandi. Avvaliga yordamchi sifatida ishga kirganman. Tajriba orttirib, tanlagan sohamni yanada puxta egallash maqsadida Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kirdim. 2010-yilda ushbu dargohda dastlab oddiy texnik sifatida ish boshlaganman. Bizning bo'lim qurilishdagi geodezik ishlar bilan shug'ullanardi. O'lchash, hisob-kitob ishlarini qiziqish bilan bajarardim. Koordinatalarni tekshirib, hisoblab beradigan alohida guruhlar bo'lardi. Umuman olganda, qizg'in ish jarayoni bizni yanada puxta va sifatli ishlashga undagan desam, xato bo'lmaydi.

Faoliyati davomida "O'zGASHKLITI"dan boshqa joyda ishlamagan Aleksandr Yevgenyevich bugun o'z sohasining malakali mutaxassislardan biri. O'zining ta'kidlashicha, boshqa joyda ishlashni hatto tasavvur ham qilolmaydi. Avvaliga oddiy qiziqish-

dan boshlangan faoliyati bora-bora uning hayotiy maqsadiga aylangan. Har bir qurilayotgan bino va inshootga ilk poydevorni qo'yishdek mas'uliyatli ishni amalga oshirayotganidan faxrlanadigan qahramonimizni jamoadoshlari ham o'zgacha hurmat bilan tilga olishadi.

– Bu sohadagi birinchi ustozim Ganedik Mamedov bo'ladi, – dedi Aleksandr Rodionov. – U kishidan kasbim bo'yicha ko'p narsani o'rganganman. Hozir u 80 yoshda bo'lsa ham institutga kelib, qilayotgan ishlarimizni kuzatib, maslahatlarini ayamaydigan ustozga ming bor rahmat aytsak, arziydi. Bugungi kunda ishlarimiz ancha osonlashgan. Chunki geodezik syomkalarni amalga oshirish uchun kerakli barcha jihozlarga egamiz.

Aleksandr Yevgenyevich o'zining 44 yillik mazmunli faoliyati davomida katta ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etib, bugungi kunda ham yurtimizdagi uy-joylar, kommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy soha ob'ektlarining sifatli barpo etilishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

O'z kasbining haqiqiy ustasi

Yelena Pavlenko (Stoyanova)
1997-yil 24-iyundan boshlab
Qurilishda muhandislik
qidiruvlari, geoaxborot va
shaharsozlik kadastri loyiha
ilmiy-tekshirish instituti MChJ –
"O'zGASHKLITI"da Texnik siyosat
va sifat menejmenti xizmati
yetakchi mutaxassisi sifatida
ishlab kelyapti.



U 1964-yil Toshkent viloyatida tug'ilgan. 1984-yil Toshkent qurilish texnikumi (kunduzgi)ni tugatgach, Yelena ma'lumoti bo'yi-cha geodezist kasbini egallagan.

Mehnat faoliyatini 1984-1994-yillarda "O'zGASHKLITI"da texnik-geodezist vazifasidan boshlagan. 1996-1997-yillarda "Do'stlik" qurilish-montaj trestida ("Glavtashkentstroy") ishlagan.

Yillar davomida o'z kasbining haqiqiy ustasi sifatida katta tajriba orttirgan malakali mutaxassis institutda geodeziyachi texnik, geodezik muhandis, texnik siyosat va sifat menejmenti xizmati, texnik nazorat bo'limi yetakchi mutaxassisi sifatida ishlab, yurtimiz bunyodkorligi sohasiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.



Sadoqatli xodim

Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI"ning yana bir faxriy xodimi Ferdaus Veremeychik ham ushbu tashkilotda 1978-yildan buyon mehnat qilib kelmoqda.

Umrining eng jo'shqin va go'zal davrini ushbu institutda o'tkazgan bu fidoyi xodim geotexnik laboratoriya bo'limida laboratoriya mudiri sifatida tashkilot tarixida muhim xodim sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

1960-yilda Farg'ona shahrida tug'ilgan Ferdaus Rustamovna 1981-yilda Farg'ona kechki yengil sanoat texnikumini tamomlagan. Injener-mexanik mutaxassisligiga ega bo'lgach, institutdagi mehnat faoliyatini yanada katta kuch va ishtiyoq bilan bajarishga kirishadi.

O'tgan yillar davomida uning ishtirokida yaratilgan qator loyihalar yurtimizning arxitekturaviy qiyofasini taraqqiy ettirishga hissa qo'shganini ta'kidlash lozim. Qolaversa, laboratoriya mudiri sifatida o'zidagi bilim va tajribani yosh mutaxassislariga o'rgatib kelayotgan kasbiga sadoqatli Ferdaus Veremeychik tobora rivojlanib borayotgan soha rivojida muhim kadrlardan biri sifatida alohida e'tibor qozonib kelmoqda. Uning qizi Elvina Veremeychik ham onasining izidan borib, bugungi kunda institutda texnik laborant sifatida ishlab kelmoqda.

Malakali mutaxassis

Aleksandr Zibrov 1976-yildan boshlab institutda turli lavozimlarda ishlab, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan malakali mutaxassislardan biridir.

1955-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan Aleksandr Vasilyevich 1980-yilda Toshkent topografiya texnikumini topografiya mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.

Mehnat faoliyati davomida "O'zGITI" xodimi, 1976-1980-yillarda "TaSHGITI" texnik-topografchi, 1980-1997-yillarda "TaSHGITI" muhandis-topografi sifatida ishlab, ko'plab yirik loyihalarni amalga oshirishda faol qatnashgan.

1997-yildan buyon esa Topografiya bo'limi partiya boshlig'i lavozimida ishlab kelmoqda. Faoliyati davomida sohaning malakali mutaxassisiga aylangan Aleksandr Zibrov



o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi va mehnatkashligi bilan jamoadoshlarining hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda.

"O'zGASHKLITI" 60 yilligiga
Bizning faxriylar



Fidoyi va g'ayratli

Vladimir Rogalskiy 1999-yildan buyon Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'zGASHKLITI"ning Toshkent shahar va viloyat filialida Texnik nazorat bo'limi bosh mutaxassisi sifatida ishlab, yurtimiz bunyodkorlik sohasiga katta hissa qo'shib kelmoqda.

1957-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan Vladimir Vikentiyevich 1989-yil Toshkent davlat politexnika institutini (kechki) tamomlagan. Oliy ta'lim dargohida sanoat qurilishi muhandisligi bo'yicha tahsil olgan Vladimir Rogalskiy mehnat faoliyati davomida ko'plab yirik loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etgan.

Mehnat faoliyatini 1972-1976-yillarda, Toshkent topografiya kollejida ta'lim olayotgan paytidan boshlagan. Shundan so'ng, 1976-1979-yillarda 226 GUGK Samarqand ekspeditsiyasida topograf-geodeziya ishi bo'yicha, 1979-1989-yillarda "ToshGITI" geo-

deziya bo'limida, 1989-1999-yillarda esa 1-sonli uy qurilishi kombinati bosh geodeziyachisi sifatida faoliyat yuritgan. Shu yillar davomida institutda Qurilish geodeziya boshqarmasi partiya boshlig'i, Qurilish geodeziya boshqarmasi bosh mutaxassisi, Texnik nazorat bo'limi bosh mutaxassisi vazifalarida ishlab, fidoyi va g'ayratli xodim sifatida o'zini namoyon etib kelmoqda.

Uning qurilish-bunyodkorlik sohasiga qo'shgan xizmatlari munosib e'tirof etilib, 2017-yilda "O'zbekiston Konstitutsiyasi-ning 25 yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

Umrini kasbiga bag'ishlagan xodim



Umrini, butun bilimini institut taraqqiyotiga bag'ishlagan fidoyi xodimlardan yana biri Kabul Iyaberganovdir.

U 1962-yilda Toshkent viloyatida tug'ilgan. 1984-yil Toshkent Qishloq xo'jaligi texnikumining yer tuzish mutax-

assisligi bo'yicha tamomlab, shundan buyon bir qator loyihalarning amalga oshirilishida faol ishtirok etgan.

Bir umr ushbu institutda turli vazifalarda ishlab, mamlakatimiz qurilish-bunyodkorlik sohasiga munosib hissa qo'shib kelayotgan Kabul Iyaberganov 1984-yildan buyon Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti MChJ – "O'ZGASHKLITI"ning Toshkent shahar va viloyat filiali-da Texnika va nazorat bo'limi boshlig'i sifatida faoliyat yuritib kelyapti.

Ungacha texnik, katta texnik, topograf, Topografiya bo'limi partiya boshlig'i, bosh mutaxassis, filial direktori o'rinbosari, shahar filiali direktori lavozimlarida ishlab, davlat ahamiyatiga molik ko'plab yirik loyihalarni ishlab chiqilishida bosh-qosh bo'lgan.

Jamoaning faxriy a'zosi

Institut taraqqiyotida faqatgina soha xodimlarining emas, balki jamoada faoliyat yuritayotgan boshqa xodimlarning ham o'ziga yarasha xizmati katta. Chunki hamjihatlikda bajarilgan har bir ish ijobiy natija berishi shubhasiz.



